O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI
OLMALIQ SHAHAR HOKIMI
QARORI

Olmaliq shahri, Amir Temur ko'chasi, 47

2022 - yil 26 - dekabr 426-10-147-Q/22 Olmaliq shahar hokimligi

Qabristonlarni saqlash va ulardan foydalanish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-sonli qarori ijrosini ta‘minlash, qabristonlarida go‘r qazish va dafn marosimlarini jismoniy va yuridik shaxslarga pullik xizmat ko‘rsatish faoliyatini tartibga solish maqsadida,

QAROR QILAMAN :

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi 101-sonli qarorining “Dafn etish joylarini saqlash, ulardan foydalanish va qabr usti yodgorliklarini o‘rnatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq va dafn etish xizmatlarini tartibga solish maq‘sadida:

- Olmaliq shahar qabristonlarini saqlash va ulardan foydalanish, dafn etish xizmatlari ko‘rsatish Olmaliq shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan amalga oshirilsin, boshqa holatlarda, yuridik shaxslar tomonidan Olmaliq shahar hududidagi qabristonlarda olib boriladigan dafn etish xizmatlari ko‘rsatishda Olmaliq shahar Obodonlashtirish boshqarmasi bilan yozma kelishuv orqali ruxsat berilsin;

- Olmaliq shahar Obodonlashtirish boshqarmasi ta‘sarrufidagi qabristonlarga go‘r qazish va dafn marosim hizmatlarini jismoniy va yuridik shaxslarga pullik xizmat ko‘rsatish uchun – go‘r qazish va marosim xizmatlari uchun pullik xizmatlar Tariflari bazaviy hisoblash miqdori asosida 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Obodonlashtirish boshqarmasi tasssarufidagi qabristonlarda qonun

hujjatlariga muvofiq go‘r qazish va marosim xizmatlari uchun pullik xizmatlardan tushgan mablaq‘lar hisobidan:

- Go‘r qazish va marosim xizmatlari o‘tkazish uchun zaruriyatdan kelib chiqqan holda tegishli Obodonlashtirish boshqarmasi shtatidan tashqari ishchi va xodimlar tayinlansin;

- Ushbu xizmatlarga jalb qilingan Obodonlashtirish boshqarmasi xodimlariga pullik xizmatlardan tushgan mablaq‘lar hisobidan 10% dan oshmagan miqdarda ish haqi ajratilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash shahar hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekalogiya va ko‘klamzorlashtirish bo‘yicha o‘rinbosari Z.Kenjayev zimmasiga yuklansin.

Olmaliq Shahar Hokimi **Q.Xamdamov**

Olmaliq shahar hokimining
2022 yil 26 dekabrdagi
426-10-147-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Olmaliq shahriga tegishli qabristonlarda go‘r qazish va dafn marosim xizmatlari uchun pullik xizmatlar

TARIFLARI

T/r	Xizmat turlari	O‘lchov birligi	To‘lov kunidagi Bazaviy hisoblash miqdoridan foizda
1	Tegishli diniy konfessiya qabristonlarda fuqarolarga (tashkilotlarga) dafn uchun uchastkalar berish	m.kv	Bepul
2	An'anaviy musulmoncha go‘r qazish: Katta (1x1 metr chuqurligi, 1,5 metrlik ayvon qibla tomon chap burchagi, 0,5x0,6 metrlik tuynuk, tuynuk orqali uzunligi 2 metr, eni 1 metr va balandligi 1,1 metrlik lahad) Kichik (0,6x0,8 metr chuqurligi, 0,7x0,8 metrlik ayvon qibla tomon chap burchagi, 0,3x0,4 metrlik tuynuk orqali uzunligi, 1,0x1,4 metr, eni 0,4x0,5 va balandligi 0,4 metrlik lahad)	1 dona go‘r 1 dona go‘r	0,55 0,27
3	Qabristonlarda boshqa dinga mansublar uchun go‘r qazish: Katta – uzunligi 2 metr, eni 1 metr, chuqurligi 1,5 metr Kichik – uzunligi 1 metrdan 1,3 metrgacha, eni 0,5 metrdan 0,6 metrgacha	1 dona go‘r	0,55
4	Qabristonlarda boshqa dinga mansublar uchun go‘r qazish: Katta – tobut (grob) qopqog‘igacha Kichik – tobut (grob) qopqog‘igacha	1 dona	2,78
5	Raqamli ustuncha	1 dona	0,11
6	Musulmon diniga mansublar uchun tobutlar ijarasi (1,9 metr)	1 dona	2,5
7	Sartaxta 1 kunlik ijarasi	1 dona	0,35
8	Taxtalik transport qutisi tayyorlash (1,9x2,2 metr)	1 dona	3,0
9	Zichlangan tola qog‘ozli tobut (grob) tayyorlash: 1,7x1,75 metr 1,8x1,85 metr 1,9x2,2 metr	 dona dona dona	 0,63 0,74 0,81
10	Zichlangan tolali qog‘ozdan tayyorlangan tobutni (grob) ruxlangan tunuka bilan qoplash: 1,9x2,2 metr	dona	1,3

11	Ruxlangan tobutlar (grob) uchun taxta sinchli zichlangan tolali qog‘ozdan transport qutisi tayyorlash: 1,9x2,2 metr	dona	1,85
12	Maxsus transportdan foydalanish (shahar hududida) ISUZU, avtobus	1 soat	0,5
13	Yodgorlikni qabr ustidan buzib olish	to‘plam	0,93
14	Gulchambar tayyorlash Dumaloq (1,6x1,2 metr) Kichik romb (1,25x0,75 metr)	 dona dona	 0,85 0,37
15	Eksgumasiya ishlarini amalga oshirish Fuqarolar arizasiga asosan tegishli mutasadi tashkilotlarning ruxsati bilan	1 qabr	0,37

Izoh: Qabrning chuqurligini belgilashda dafn etish usuli diniy xususiyatlar va mahalliy tuproq-iqlim sharoitlari hisobga olinadi.

Izoh: Yog‘och hom-ashyolaridan tayyorlanadigan mahsulot turlari, qarag‘ay va terak daraxtlaridan, marmar homashyolaridan tayyorlanadigan mahsulot turlari “Mahalliy oqish marmar” turlaridan foydaniladi.